



RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN EPIDEMIOLOGIYA, MIKROBIOLOGIYA, YUQUMLI VA
PARAZITAR KASALLIKLAR ILMY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZINING
VIRUSOLOGIYA ILMY-TADQIQOT INSTITUTI

108 son B U Y R U Q

“28” 07 2025 y.

Toshkent sh.

**“Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid ichki
meyoriy hujjatlarini takomillashtirish to'g'risida”**

O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan qonunchilik hujjatlarini Virusologiya ITIda tadbiq etish bo'yicha ishlab chiqilgan sohaga oid ichki meyoriy hujjatlarini takomillashtirish maqsadida,

BUYURAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Sog'lijni saqlash vazirligi xuzuridagi sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining 2025-yil 22-iyuldaggi 46-sonli buyrug'i ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.
2. Sog'lijni saqlash vazirligining 2022-yil 1-martdagи "O'zbekiston Respublikasi Sog'lijni saqlash vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uni oldini olish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 71-son buyrug'i Sog'lijni saqlash vazirining 2025-yil 8-iyuldaggi 203-sonli buyrug'iga asosan o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.
3. O'zbekiston Respublikasi Sog'lijni saqlash vazirligi xuzuridagi sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining 2025-yil 22-iyuldaggi 46-sonli b'yrug'i institut umumiy yig'ilishida xodimlarga o'qib eshittirilsin, buyruq bandlarida keltirilgan ko'rsatmalar bo'yicha buyruq asosida institut ichki buyrug'i bilan ichki me'yoriy hujjat ishlab chiqilsin va tasdiqlansin.
4. Ishlab chiqilgan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid ichki me'yoriy xujjat har bir xodim kesimida tanishtirish ishlari tashkil etilsin.
5. Ichki me'yoriy xujjatlarni qayta tasdiqlash maqsadida quyidagilar:
 - Virusologiya ITIning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosati 1-ilovaga muvofiq;
 - Virusologiya ITI faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash ushubiyoti 2- ilovaga muvofiq;
 - Virusologiya ITIda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq;
 - Virusologiya ITIning aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlami qabul qilish va ko'rib chiqish reglamenti 4-ilovaga muvofiq;
 - Virusologiya ITI xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitishni tashkil qilish bo'yicha yo'riqnomasi 5-ilovaga muvofiq;
 - Virusologiya ITIda kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnomasi 6-ilovaga muvofiq;

- Virusologiya ITIga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yoriqnomma 7-ilovaga muvofiq;
 - Virusologiya ITIda Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitorl^{ng} va nazorat qilish uslubiyoti 8-ilovaga muvofiq;
 - Virusologiya ITIda korrupsiyaga qarshi kurash tizlmining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha nizom 9-ilovaga muvofiq;
 - Virusologiya ITIning korrupsiyaviy hatti-harakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha reglamenti 10-ilovaga muvofiq;
 - Virusologiya ITIda davlat xaridlari ustidan nazoratni tashkil etish bo'yicha uslubiy qo'llanma I I-ilovaga muvofiq;
 - Virusologiya ITI xodimlari tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan sovg'a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to'g'risidagi nizom 12-ilovaga muvofiq;
 - Virusologiya ITIda Korruptsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizom 13-ilovaga muvofiq;
 - Virusologiya ITIda monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish va uning ishslash tartibi to'g'risida nizom 14-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
6. Virusologiya ITI Korruptsiyaga qarshi ichki nazorat ma'sul xodimi N.K.Mamatov 5 (besh) kun muddatda mazkur buyruq bilan tasdiqlangan xujjatlarning mazmun-moxiyati barcha xodimlar e'tiboriga etkazilsin va xodimlar o'rtaida korruptsiyaga qarshi talablarga rioya etilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatilsin.
7. Ushbu buyruq qabul qilinishi munosabati bilan Virusologiya ITI "Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni takomillashtirish to'g'risida"gi 2024-yil 29-fevraldag'i 65-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.
8. Mazkur buyruq ijrosi yuzasidan nazoratni o'z zimmamda qoldiraman.

Direktor

E.I.Musabayev